

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Ismoilov Muhammadqodir Ulug'bek o'g'li

*Jamoat xavfsizligi universiteti,
magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat moliyaviy nazoratining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'рни va ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Davlat moliyaviy nazorati byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda korrupsiya va moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olishda muhim institut sifatida qaraladi. Tadqiqot jarayonida davlat moliyaviy nazoratining nazariy asoslari, uning shakllari va mexanizmlari, shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi o'rganildi. Tadqiqot natijalari davlat moliyaviy nazoratining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va makroiqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishdagi rolini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Davlat moliyaviy nazorati, byudjet nazorati, moliyaviy intizom, audit, iqtisodiy rivojlanish, Hisob palatasi, samaradorlik.

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ

Аннотация

В данной статье комплексно анализируется место и значение государственного финансового контроля в развитии экономики. Государственный финансовый контроль рассматривается как важный институт, обеспечивающий рациональное и эффективное использование бюджетных средств, укрепление финансовой дисциплины, а также предотвращение коррупции и финансовых правонарушений. В ходе исследования были изучены теоретические основы государственного финансового контроля, его формы и механизмы, а также опыт развитых и развивающихся стран. Результаты исследования обосновывают роль государственного финансового контроля в обеспечении экономической стабильности, улучшении инвестиционного климата и ускорении макроэкономического развития.

Ключевые слова: Государственный финансовый контроль, бюджетный контроль, финансовая дисциплина, аудит, экономическое развитие, Счетная палата, эффективность.

THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN ECONOMIC DEVELOPMENT

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of state financial control in economic development. State financial control is considered an important institution for ensuring the rational and efficient use of budgetary funds, strengthening financial discipline, and preventing corruption and financial violations. The study examines the theoretical foundations of state financial control, its forms and mechanisms, as well as the experiences of developed and developing countries. The research results justify the role of state financial control in ensuring economic stability, improving the investment climate, and accelerating macroeconomic development.

Keywords: State financial control, budget control, financial discipline, audit, economic development, Chamber of Accounts, efficiency.

Kirish

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish har bir mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazorati davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi ustidan olib boriladigan nazorat faoliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu tizim davlat moliyasining shaffofligini ta'minlash, iqtisodiy resurslarning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va moliyaviy buzilishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, iqtisodiy islohotlar chuqurlashib borayotgan sharoitda davlat moliyaviy nazoratining roli yanada ortib, u iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional asosi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Asosiy qism

Davlat moliyaviy nazorati budjet to'g'risidagi qonunchilikning davlat moliyaviy nazorati obyektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik, shuningdek budjet sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi bir nechta asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: byudjet mablag'lari va davlat xarajatlari ustidan nazorat, davlat aktivlari va davlat korxonalarining moliyaviy faoliyati, ichki va tashqi audit orqali shaffoflikni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, audit to'g'risidagi qonunlar davlat moliyaviy nazoratining huquqiy asosini tashkil qiladi. Ushbu hujjatlar davlat organlari,

korxonalar va tashkilotlar moliyaviy faoliyati ustidan tizimli nazoratni yo'lga qo'yish, byudjet mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlashni belgilaydi.

Davlat moliyaviy nazorati:

respublika darajasida — O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining va O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;

mahalliy darajada — Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi¹.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi davlat moliyaviy nazorat organlaridir.

Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining daromadlari qismi bo'yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekistonning moliyaviy nazorat tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Xususan, INTOSAI va OECD tavsiyalari asosida tashqi va ichki audit mexanizmlari modernizatsiya qilinmoqda. Bu jarayonlar davlat moliyaviy nazoratining iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sirini oshirishga xizmat qiladi. Davlat xarajatlari ustidan shaffof nazoratning mavjudligi investitsiya muhitini yaxshilashga va korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirishga yordam beradi².

O'zbekistonda moliyaviy nazoratning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bir necha asosiy mexanizmlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, moliyaviy nazorat byudjet mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlaydi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ikkinchidan, audit va nazorat natijalari asosida moliyaviy qonunbuzarliklar kamayadi, bu esa iqtisodiy barqarorlik va investorlarning ishonchini oshiradi. Uchinchi, moliyaviy intizomning mustahkamlanishi fiskal barqarorlikni ta'minlaydi, davlat dasturlari va strategik loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirishini rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari O'zbekistonda moliyaviy nazorat tizimini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Bu maqsadda byudjet jarayonlarining raqamli nazorati, ichki audit tizimining mustahkamlanishi, Hisob palatasi vakolatlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.

² <https://www.intosai.org>

va mustaqilligining oshirilishi hamda jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari orqali shaffoflikni ta'minlash tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishni kuchaytirib, iqtisodiy o'sishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyidagi jadval 2024-yilda Hisob palatasi tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy nazorat natijalarini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlar nazoratning samaradorligini miqdoriy ifodalaydi va iqtisodiyotga ta'sirini aniq misollar orqali tasvirlaydi.

1-jadval.

2024-yilda Hisob palatasi tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijalari³

Ko'rsatkichlar	2024-yil natijalari
Auditlar soni (Hisob palatasi)	60 ta rejalashtirilgan audit, 45 ta tematik va amaliy yordam tadbirlari
Byudjet xarajatlarining optimizatsiyasi	9.2 trillion so'm
Aniqlangan moliyaviy kamchiliklar oldi olingan miqdor	2.3 trillion so'm
Byudjetga qo'shimcha aniqlangan tushumlar	3.7 trillion so'm
Davlat xaridlaridagi kamchiliklar (aktiv chora)	4.5 trillion so'm
Hisob palatasi monitoring qamrovi — budjetdan tushadigan miqdor	480 trillion so'm

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan tashkillashtirilgan nazorat natijalari iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy intizomni mustahkamlash sohasida sezilarli yutuqlarni ko'rsatdi. Hisobot natijalariga ko'ra, byudjet jarayonlari raqamli transformatsiya orqali "Masofaviy audit" axborot tizimi orqali nazorat qilinib, natijada samarasiz xarajatlar va moliyaviy kamchiliklarni aniqlashda yuqori samaradorlik kuzatildi.

2024-yilda byudjet xarajatlarining optimizatsiyasi uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida samarsiz sarflar 9.2 trillion so'mga qisqartirildi, bu esa nazoratning iqtisodiy samaradorligi oshganini ko'rsatadi. Bu jarayonda axborot tizimlari orqali moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida kuzatish hamda audit organlari bilan ma'lumot almashinuvi juda muhim rol o'ynadi⁴.

Tahlillar asosida aniqlangan 2.3 trillion so'mlik moliyaviy kamchiliklar erta bosqichda aniqlanib, ularning bartaraf etilishi iqtisodiyotda byudjet resurslarini

³ Jadval O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

⁴ Hisob palatasining 2024-yil yakunlari bo'yicha brifingi

samarali yo‘naltirish imkonini berdi. Bu holat davlat moliyaviy nazoratining rejali va tizimli faoliyati orqali erishildi.

Nazorat jarayonida aniqlangan qo‘shimcha tushumlar 2024-yilda 3.7 trillion so‘mga yetdi, bu esa byudjet daromadlarini oshirish bo‘yicha auditorlar va moliya organlari samarali hamkorligi natijasidir.

Davlat xaridlari sohasida aniqlangan kamchiliklar 4.5 trillion so‘mlik tovarlar, xizmatlar va ishlar bo‘yicha byudjetdan foydalanishda kamchiliklar aniqlangan va bartaraf etilgan. Bu ko‘rsatkich moliyaviy nazoratning shaffofligini oshirish va korrupsiya risklarini kamaytirishga xizmat qiladi⁵.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashning muhim institutsional mexanizmi sifatida samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Hisob palatasi va ichki audit organlari tomonidan amalga oshirilgan nazoratlar moliyaviy intizomni mustahkamlash, byudjet mablag‘larining samarali ishlatilishini ta‘minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda bevosita rol o‘ynamoqda. 2022–2024 yillar davomida amalga oshirilgan tekshiruvlar natijalariga ko‘ra, aniqlangan moliyaviy kamchiliklar va samarasiz xarajatlar sezilarli darajada kamaygan, byudjetga qo‘shimcha tushumlar kiritilgan, davlat dasturlari va investitsiya loyihalarining moliyaviy samaradorligi oshgan.

Tahliliy va raqamli ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati iqtisodiy rivojlanishga bir nechta mexanizmlar orqali ta‘sir qiladi. Birinchidan, moliyaviy nazorat byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatilishini ta‘minlab, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ikkinchidan, audit va nazorat natijalari asosida moliyaviy qonunbuzarliklar kamayadi, bu esa investorlar va jamoatchilik ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, moliyaviy intizomning mustahkamlanishi fiskal barqarorlikni ta‘minlaydi va davlat dasturlari hamda strategik loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirishini rag‘batlantiradi.

2024-yilda Hisob palatasi tomonidan amalga oshirilgan 60 ta rejalashtirilgan va 45 ta tematik auditlar natijasida aniqlangan moliyaviy kamchiliklar 2,3 trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, byudjet mablag‘larining optimizatsiyasi orqali 9,2 trillion so‘m miqdorida samarasiz xarajatlar qisqartirilgan. Shu bilan birga, byudjetga qo‘shimcha tushumlar 3,7 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu moliyaviy nazoratning iqtisodiyotga bevosita ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.02.2021 yil.

⁵ <https://president.uz/ru/lists/view/7827>

3. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-546-son “O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 01.07.2019 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 27.08.2021 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-252-son “Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. 18.12.2025 yil.
6. <https://www.intosai.org>
7. <https://president.uz>
8. <https://ach.gov.uz>